

ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARINING JOZIBADOR IFODALARI.

Toshmuxammadova Sevinch Xayrulla qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakultetining 1-bosqich talabasi

E-mail: sevinchtoshmuhammedova06@gmail.com

Tel; +998904531405

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning ijodiga oid “Meni deya chekma iztirob” nomli she’rining tahlilini ko’rib chiqamiz. Unda she’rning mazmuni va asosiy g’oyalari aytib o’tilgan. She’r insonning ruhiy kuchi, umid va mag’rurligi haqida. Insoniyat yaratilibdiki, u adabiyot bilan chambarchas bog’liq, badiiylikka esa oshnodir. Buni birgina tahlilimiz orqali namoyon qilib o’tmoqchimiz. Bu borliq, butun koinot so’z san’ati va adabiy muhit bilan tirikligini isboti keltirib o’tilgan. Aleksandr Faynberg she’rlari esa butun borliqni uyg’ota oladigan, haqiqiy sehr kuchi ekanligiga mazkur maqola yaqqol misol bo’la oladi. Shoir hayotdagi turli qiyinchiliklar, iztiroblar va muhabbatning achchiq his-tuyg’ulariga qaramay, o’zini mag’rur inson sifatida tasvirlagani ham e’tibordan holi emas.

Kalit so’zlar; muhabbat, shoir, sehr, joziba, badiiy, erkin so’z ifodasi.

ABSTRACT: In this article, we analyze Alexandr Fainberg’s poem “Do not suffer because of me”. The content and main ideas of the poem are discussed. The poem speaks about the spiritual strength, hope and pride of a human being. Since the creation of humanity, literature has always been closely connected with human emotions and it is intertwined with art. We aim to demonstrate this through our analysis. The article emphasizes that the entire universe is proof of the vitality of artistic and literary expression. The poems of Alexandr Fainberg can awaken the entire existence and are clear examples of the magical power of true poetry. Despite various difficulties, sufferings and the bitterness of love, the poet portrays himself as a proud person, which shows that he is not indifferent to human emotions.

Keywords; love, poet, magic, charm, artistic, free expression.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается творчество Александра Файнберга и анализируется его стихотворение “Не страдай из-за меня”. В работе раскрывается содержание и основные идеи стихотворения. Стих говорит о духовной силе человека его надежде и гордости. С момента сотворения человечества литература была тесно связана с духовным миром человека и неразрывно переплетена с искусством. Стремимся показать это через наш анализ. Указывается что весь

космос является доказательством живучести слова и искусства. Стихи Александра Файнберга способны пробудить всю сущность бытия и служат ярким примером истинной волшебной силы поэзии. Несмотря на жизненные трудности страдания и горечь любви поэт изображает себя гордым человеком что свидетельствует о его глубокой человечности и чувствительности.

Ключевые слово; *любовь, поэт, волшебство, очарование, художественный, свободное выражение.*

Aleksandr Faynberg ijodiga mansub Meni deya chekma iztirob nomli she'rida turli xil rango-ranglikni ko'rishimiz mumkin.

Meni deya chekma iztirob,
Yashayapman mag'rur, qaddi tik.
Yelkam tutar sobit ishonchim,
Yorug' kunlar qarshimda-tetik.
Kengliklarda goh yomg'ir, shamol,
O'rlar bo'm-bo'sh dala o'tinchi.
Yuraginga bargsiz shoxlardan
Mo'ralaydi Umid sog'inchi.
Ishonaman, umid uzilmas,
Zinalarda- hayotim izi.
Taqdirimni men-la bo'lishar
Olis achchiq muhabbat hissi.
Xusumatdan xoli dil toza,
Alam, Hasrat sezinmas also.
Moviy ko'kda tiniq yulduzim
Oydin yo'lga boshlaydi illo.

Ushbu she'rdagi birinchi baytni oladigan bo'lsak, shoirning qadr-qimmatini va ruhiy mustahkamligini ifodalab bermoqda. Go'yoki shoir qiyinchiliklar va iztirob ostida yorug' kunlarni ko'rmoqda ammo undan halovat topa olmayotgandek.

Ikkinchi baytida esa tabiat tasvirlari ko'rsatilmoqda. Shu jumladan umidning qiyinchiliklardan o'sishi tarzida ifodalangan. Yuragida bir bo'shliq bor inson tasvirlanmoqdadir.

Uchinchi baytida hayotiy tajriba ba inson intilishining ramzi sifatida "zinalar"ni misol qilib olgan. Hayotida achchiq muhabbat va u olis-olislarda yurgani aytib o'tilgan.

So‘ngida to‘rtinchi baytida ruhiy poklik qalb tozaligi va yo‘l ko‘rsatuvchi umid yulduzi orqali insonning ijobiy maqsadlari va istiqboli tasvirlanadi. Inson dili qanchalik pok va toza bo‘lsa, alam, Hasrat yaqinlasha olmasligi aytib o‘tilgan.

Aleksandr Faynberg har bir she‘rida chuqur ma‘no, izchil yondashuv aks etib turadi. Aynan shoirning Meni deya chekma iztirob nomli she‘rida insonning ruhiy mustahkamligi va umid orqali hayot yo‘lini yoritilishi tasvirlab berilgan. Umid va ijobiy fikr insonni yo‘naltiruvchi yulduz kabi nihoyatda go‘zal tasvir bilan yondashilgani insonni o‘ziga jalb qila oladi. Shoir ushbu she‘ri orqali shaxsiy qadr-qimmat ruhiy kuch va umidning inson hayotidagi ahamiyatini ifodalaydi. U qiyinchiliklarni muhabbatning achchiq his-tuyg‘ularini qabul qiladi. Shunday bo‘lsada, u qalbini toza, ruhini tetik, irodasini mustahkam saqlab qolish zarurligini ta‘kidlaydi. Adabiyot bu qalb amri hisoblanadi. Aleksandr Faynberg esa mana shunday qalb amriga buysungan holda muhabbatla yondashib, ijod qiluvchi shoirlardan biri bo‘lgani uning ijod yo‘llaridan ham ma‘lumdir. Shoir o‘zining hayoti davomida 15 dan ortiq she‘riy to‘plam yaratgan bo‘lsa, ularning barchasida badiiylik, insoniylik, samimiyat hamo-hang ravishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir qaysi tilda ijod qilishidan qat‘iy nazar qalbdagi tug‘ilgan har bir satr butun insoniyat ruhiga ta‘sir o‘tkaza oladi. Bu kabi fazilatlariga ega shaxslardan biri hech shubhasiz Aleksandr Faynbergdir.

XULOSA.

Aleksandr Faynberg she‘riyati tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkin; shoir ijodi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatining nozik jildlarini chuqur ifodalash, zamon va inson o‘rtasidagi murakkab ruhiy aloqalarni badiiy tahlil qilish borasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning she‘rlarida insoniylik, vijdon, muhabbat, ezgulik chuqur aks etib turadi. Uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissi ham beqiyosdir. Ko‘plab shoir va yozuvchilarimiz uning she‘riyatini chuqur o‘rgangan va tarjima qilgan. Shoirning hayot yo‘llarini chuqur o‘rganish, she‘riyat dunyosini boshqa tillarga tarjima qilib dunyo yuzini ko‘rsatish bu -biz kelajak avlod uchun muqaddas Sharaf deb bilamiz. Afsuski shoir bugun oramizda yo‘q, lekin uning boy merosi va mangu xotirasi hech qachon o‘lmaydi. Har doim qalbimizda mangu qoladi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. <https://cyberleninka.ru> Aleksandr Faynber she‘riyati tahlili
2. https://scientificik_jl.com 17-fevral 2025-y
3. O‘ralov U (2022) “pedagog Respublika ilmiy jurnali”
4. <https://web-journal.ru> 26-mart 2024-y
5. <https://bestpublication.org> 15-dekabr 2022-y

6.<https://muddarisziyo.ru>

7.<https://interonconf.org> O‘zbek xalqi qalbidan chuqur joy olgan rusiyzabon shoir
Aleksandr Faynberg.